

TO'XTASH VA TO'XTAB TURISH QOIDALARI

ПРАВИЛА ПАРКОВКИ И СТОЯНКИ

STOP AND STOP RULES

*Matniyazov Davronbek Erimbetovich**Ellikqal'a tuman kasb-hunar maktabining "Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi" fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati qoidalari" da belgilangan transport vositalarining to'xtash va to'xtab turish qoidalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot transport vositalarining to'xtash va to'xtab turishiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, kuzatuvlar va so'rovnomma o'tkazish orqali amalga oshirildi. Maqolada to'xtash va to'xtab turishga ruxsat etilgan va taqiqlangan joylar, to'g'ri to'xtab turish usullari, to'xtash va to'xtab turishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati qoidalari, to'xtash, to'xtab turish, yo'l harakati xavfsizligi, yo'l transport hodisalari

Аннотация. В данной статье рассмотрены правила остановки и стоянки транспортных средств, Постановление "Об утверждении правил дорожного движения" Республики Узбекистан. Исследование проводилось путем анализа, наблюдения и опроса нормативных актов, касающихся остановки и стоянки транспортных средств. В статье рассматриваются разрешенные и запрещенные места для парковки и стоянки, правильные методы парковки, конкретные аспекты парковки и стоянки.

Ключевые слова: правила дорожного движения, остановка, стоянка, безопасность дорожного движения, дорожно-транспортные происшествия

Abstract. This article discusses the rules for stopping and parking vehicles, the Resolution "On the approval of traffic rules" of the Republic of Uzbekistan. The study was carried out through the analysis of regulatory documents, observations and a survey of the parking and parking of vehicles. The article covers areas where parking and parking are allowed and prohibited, proper parking methods, and specific aspects of parking and parking.

Keywords: traffic rules, parking, parking, traffic safety, traffic accidents

KIRISH

Zamonaviy shaharlar infratuzilmasida avtomobillar soni ortib borishi bilan yo'l harakat xavfsizligini ta'minlash tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalari natijasida 1,3 million odam halok bo'ladi va 20-50 million odam tan jarohati oladi [1]. Yo'l-transport hodisalarining asosiy sabablaridan biri haydovchilarning yo'l harakati

qoidalariga, xususan, to'xtash va to'xtab turish qoidalariga rioya qilmasligidir. Shu bois, ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati qoidalarini" da belgilangan to'xtash va to'xtab turish qoidalarini o'rganish maqsad qilingan [2].

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekistonda yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida" gi qonun [3] va "Yo'l harakati qoidalarini" [2] tashkil etadi. Bundan tashqari, to'xtash va to'xtab turish qoidalariga rioya qilishni o'rganish maqsadida Ellikqal'a tumanining turli hududlarida kuzatuvlar o'tkazildi va haydovchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham tahlil qilindi [4, 5]. Ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi.

NATIJALAR

"Yo'l harakati qoidalarini" ning 88-bandiga ko'ra, transport vositalariga yo'lning o'ng tomonida, yo'l yoqasida, u bo'lmaganda esa qatnov qismining chetida va trotuarda (yengil avtomobillar, mototsikllar, mopedlar va velosipedlarga 5.15 va 7.6 yo'l belgilari bo'lgandagina) to'xtash va to'xtab turishga ruxsat etiladi [2]. Aholi punktlarida esa bir tomonlama harakatli yo'llarda yo'lning chap tomonida ham to'xtashga ruxsat beriladi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, Ellikqal'a tumanida aholi gavjum bo'lgan markaziy ko'chalarda haydovchilar ko'pincha to'xtash taqiqlangan joylarda to'xtaydilar. So'rovnomada qatnashgan 100 nafar haydovchining 67 nafari yo'l chetida to'xtash qoidalarini bilishini ma'lum qilgan, ammo 42 nafari ayrim holatlarda noqulay joyda to'xtaganini tan olgan.

To'xtash va to'xtab turishning yana bir muhim jihati bu transport vositalarining to'xtab turish joylarida joylashish usulidir. "Yo'l harakati qoidalarini" ning 89-bandiga ko'ra, bir qator parallel yoki ikki qator (mototsikllar uchun) qilib to'xtab turishga ruxsat etiladi [2]. Shuningdek, qatnov qismining kengaytirilgan qismida boshqacha tarzda ham joylashtirish mumkin. Biroq kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, tor ko'chalarda ba'zi haydovchilar ikki qator bo'lib, hatto qarama-qarshi tomonga qarab to'xtab turishlari yo'l harakatiga xalaqit berishiga olib keladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaharlar sharoitida to'xtash va to'xtab turish qoidalariga rioya qilmaslik yo'l harakatidagi xavfli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yo'lning belgilangan qismidan chetga chiqib to'xtagan yoki noto'g'ri joylashgan transport vositalari yo'l to'siqlari vazifasini o'tab, yo'l harakatiga to'sqinlik qiladi [4]. Bu ayniqsa piyodalar o'tish joylari, chorrahalar, bekatlar kabi gavjum yo'l qismlarida xavfli hisoblanadi [5].

Shuningdek, to'xtash va to'xtab turish qoidalarining buzilishi transport vositalari va piyodalar o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Noto'g'ri joylashgan transport vositalari piyodalarning harakatlanishiga xalaqit beradi, ayniqsa nogironlar,

kekxa va bolali yo'lovchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu esa o'z navbatida jamoat tartibini buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, belgilangan joylardan tashqarida to'xtab turish yo'l qoplamasi yemirilishini tezlashtiradi, transport vositalarini joylashtirishni qiyinlashtiradi, yo'l bo'yidagi savdo va xizmat ko'rsatish obyektlariga kirishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa eski shahar markazlari va tor ko'chalarda bu muammo yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda, avvalo, haydovchilarning huquqiy madaniyatini, mas'uliyatini oshirish muhim. Buning uchun jamoatchilik va OAVda to'xtash qoidalarining ahamiyatini keng targ'ib qilish, jarimalar tizimini takomillashtirish, qoidabuzarlikni kuzatuv kameralari orqali avtomatik qayd etish tizimini kengaytirish tavsiya etiladi [5]. Shuningdek, shaharlar infratuzilmasida to'xtab turish joylarini ko'paytirish, belgilangan joylarda to'g'ri to'xtab turishni nazorat qilish choralari ham muhim ahamiyatga ega.

To'xtash va to'xtab turish qoidalarining buzilishi yo'l harakati xavfsizligi va jamoat tartibiga jiddiy xavf tug'diradi. Bu muammoni hal qilish uchun kompleks choralar - huquqiy, tashkiliy, texnik va targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish talab etiladi. Har bir ishtirokchining, xususan, haydovchilar, yo'lovchilar, yo'l harakati xizmatlari va mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatli va ongli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda to'xtash va to'xtab turish qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi gavjum joylarda bu qoidalarga rioya qilmaslik yo'l harakatida xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. O'zbekistonda ushbu qoidalarning bajarilishini ta'minlash uchun jamoatchilik ongini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar nazoratini kuchaytirish, yo'l infratuzilmasini takomillashtirish choralarini ko'rish tavsiya etiladi. To'xtash va to'xtab turish qoidalariga og'ishmay amal qilish har bir haydovchining burchi va mas'uliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. (2018). Global status report on road safety 2018. <https://www.who.int/publications/i/item/9789241565684>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son, <https://lex.uz/docs/-5953883>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.01.2024 yildagi O'RQ-900-son, <https://lex.uz/docs/-6764454>
4. Shmeleva, M.V. (2020). Osobennosti sistemy organizatsii parkovochnogo prostranstva [Features of the parking space organization system]. Moskovskiy ekonomicheskii zhurnal, (11), 563-570.
5. Xu, J., Yang, K., & Shao, Y. (2018). Analysis of Illegal Parking Behavior Based on Crowdsourcing Data. Proceedings of 21st International Conference on Intelligent Transportation Systems (ITSC), 1529-1534.